

=====

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INKLIZIV TA'LIM
JARAYONINING PSIXOLOGIK JIHATLARI**

Israilova Aygul Bayadilovna¹

¹ Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Psixologiya ixtisosligi 1-bosqich magistranti

Aykoisrailova@gmail.com, +998909104364

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 22.02.2025

Revised: 23.02.2025

Accepted: 24.02.2025

KALIT SO'ZLAR:

Inklyuziv ta'lism, pedagog, mexanizm,

"Ta'lism to'g'risidagi"gi

Qonun, surdopedagog.

Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lism jarayonining psixologik mexanizmlarini hamda ularni takomillashtirish usullari va imkoniyatlari ko'rib chiqildi. Maqolada yuritilgan tahlil inklyuziv ta'lism jarayonida maxsus ijtimoiy-psixologik, tashkiliy va uslubiy sharoitlar yaratilsa, o'qituvchilarning uslubiy mahoratini shakllantirish yanada muvaffaqiyatli bo'lishini ta'kidlaydi.

KIRISH. Hozirgi kunda inklyuziv ta'lism jahon ta'lism tizimining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan bo'lib, uning asosiy maqsadi – har qanday bolaning, jumladan, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ham sifatli ta'lism olishini ta'minlash demakdir. O'zbekistonda ham inklyuziv ta'lismni rivojlantirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lism jarayonini samarali tashkil etishning asosiy mexanizmlari yoritiladi.

Inklyuziv ta'lism – bu barcha bolalarga, shu jumladan jismoniy, psixologik, intellektual yoki boshqa turdag'i cheklolarga ega bo'lgan o'quvchilarga teng sharoit yaratib berish jarayonidir. Bu model ijtimoiy tenglik va inklyuziv tamoyillariga asoslangan bo'lib, maxsus ehtiyojga ega bolalarning jamiyatga integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi. Pedagogika fani bolalar va kattalarni ta'lism va tarbiyalash qonuniyatлari haqidagi fan sifatida ta'riflanadi [1]. Uning asosiy vazifasi - tarbiya, o'qitish, ta'lism va ta'lism tizimlarini boshqarish sohasidagi qonuniyatлarni aniqlashdir. Umumta'lim maktablarida joriy etilgan inklyuziv ta'lismning maqsadi alohida yordamga muhtoj bolalarning oddiy tengdoshlari bilan bir xil sharoitlarda o'qishi, huquq va imkoniyatlar tengligini berish, ular bilan o'zaro do'stona munosabatda bo'lishi hamda jamiyatga ijtimoiy moslashuvini yengillashtirish, o'quvchilarning ta'lism olishlari uchun zaruriy pedagogik-psixologik va korreksion sharoitlarni yaratishdan iboratdir

Inklyuziv maktab – inklyuziv ta’lim tashkil etilgan maktablar bolalarning bilim olishi hamda shaxsiy huquqlarini himoyalaydi. O‘quvchilari turlicha, sog‘lom va yengil darajada nogiron bo‘lgan, ularning har birlari uchun o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda teng sharoit yaratilgan maktabdir. 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risidagi”gi Qonunda inklyuziv ta’lim ta’lim shakllaridan biri sifatida e’tirof etilib, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta’lim olish huquqi kafolatlangan [2]. Inklyuziv ta’limning oiladan, maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab yo‘lga qo‘yilayotganligi muhim ahamiyatga ega. Bu esa bolalarning keyinchalik atrofdagilar bilan muloqotda bo‘lishiga, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan va shu bilan birga, kundalik-maishiy ehtiyojini qondirish ko‘nikmalarini erta egallahshlariga, hayotga moslashib, umumta’lim maktablarida tengdoshlari qatori darslarni o‘z vaqtida o‘zlashtirishiga, topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashish ko‘nikmasini egallahshlariga ko‘maklashadi. Umumta’lim maktablarda inklyuziv ta’lim – alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolalar yoki boshqa sabablar tufayli tarbiyasi og‘ir, yetim bolalar uchun moslashuvchan, individuallashgan va barcha bolalarga huquq va imkoniyatlar tengligini beradigan ta’lim tizimidir. Shuningdek, inklyuziv ta’lim – millati, irqi, tanasining rangi, ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy va ma’naviy ahvoli, oilasining jamiyatda tutgan o‘rni, jismoniy yoki rivojlanishda kamchiligi bo‘lishidan qat’i nazar barcha bolalarni teng ko‘rish, ulardagi har qanday imkoniyatni qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadigan ta’lim hisoblanadi [3].

Hozirgi kunga qadar ta’lim muassasalarida alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish, oilada nogironligi bo‘lgan farzandni tarbiyalashning pedagogik-psixologik xususiyatlari, ularning nuqsonlarini korreksiyalash, shuningdek, nutqiy kamchiligini o‘rganish va bartaraf etish muammolari, ularni kasb-hunarga yo‘naltirish masalalari R.Jo‘raev, Sh.Qurbanov, M.Hakimova, G“.Shoumarov, L.Mo‘minova, H.Pulatova, L. Nurmuhamedova, R.Shomahmudova kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Dunyo mamlakatlarida nogironligi bo‘lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni tarbiyalash, ularning jamiyatda o‘ziga munosib o‘rinni egallahshlariga ko‘maklashish masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi, “Ta’lim hamma uchun” reja-dasturi to‘g‘risidagi Dakar deklaratsiyasi va boshqa xalqaro miqyosda qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning asosiy maqsadi nogiron bolalarni himoyalashga qaratilgan bo‘lib, ta’lim jarayoniga inklyuziv yondashuvni samarali joriy etish ham shular jumlasidandir.

Inklyuziv sinflarda umumta’lim maktablarining barcha o‘qituvchilari faoliyat olib boradi, faqat sinfdagi imkoniyati cheklangan bolalar bilan maxsus ta’lim mutaxassislari (surdopedagog, tiflopedagog, oligofrenopedagog) maxsus o‘qituvchi sifatida hamkorlikda

ish olib boradi. Inklyuziv ta'lim umumta'lim dasturlari asosida har bir yo'nalishdagi (ko'rishdagi, eshitishdagi, aqliy faoliyatida muammosi mavjud) bolalarga yo'naltirilgan, moslashtirilgan o'quv dasturlari asosida individual yondashuv orqali o'qitiladi [4]. Bugungi kunda Chirchiq davlat pedagogika universiteti qoshida Psixologik markaz tashkil etilgan bo'lib, ushbu markazda Qodirova Feruza Usmonovna boshchiligidagi talabalar, magistrler bilan "Klaster" negizida "Kaskad" usuli orqali "Inklyuziv ta'lim"ga mo'ljallangan kichik markaz faoliyati yo'lga qo'yilgan. Shu markazda nutqida nuqsoni bor bolalarni, tayanch harakat tizimida nuqsoni bor bolalar bilan treninglar, amaliy mashg'ulotlar o'tkazilmoqda. Inklyuziv ta'lim amaliyoti tayanadigan bosh g'oya shundan iboratki, bu ta'limalohidaolangan har bitta o'quvchining o'ziga xos tomonlarini qabul qilishi va hisobga olishi kerak, demakta'limni har bir bolaning maxsus ehtiyojlarini qondiradigan tarzda tashkil etish lozim. Mavjudmaxsus ta'lim tizimi amaliyoti shuni ko'rsatadiki, individual yondashuv faqat zarur holatlardaginaqo'llanadi. Inklyuziv maktablarda esa har bitta bola o'qishda yaxshiroq natijalarga erishishimkonini beradigan psixologik yordam, e'tibor, kerakli shart-sharoit bilan ta'minlanganbo'lishilozim. Darhaqiqat bizning maktablarimiz inklyuziv maktab bo'lishi va ularda inklyuzivta'limlib borilishi bugungi kunning dolzarb yo'nalishidir. Yangi umumiy ta'limdasturi alohidaehtiyojga ega bolalar muvaffaqiyatli o'zlashtira olishi uchun qulay sharoitlarni yarata olishi vashunga mos o'zgartirishlar kiritilishi lozim. Inklyuziv ta'limning asosiy tarkibiy qismi sifatidavaamalga oshirish borasida eng muhim elementlaridan biri bo'lgan psixologik-pedagogikhamrohlikdir. Imkoniyati cheklangan bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lim muassalari tarkibiga qarab olinishi jahon miqyosida "inklyuziv" yoki "integratsion" ta'lim atamalari bilan ataladi. Integratsiyalashgan ta'lim bu - diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir.

L.S.Vigotskiy fikricha "Ta'lim tizimi shunday bo'lishi kerakki, nuqsonli bolani tarbiyalashning vazifasi boladagi nuqsonlarni kompensatsiya qilish va uning integratsiyasini ta'minlash deb hisoblaydi va buning uchun shunday ta'lim tizimini yaratish kerakki maxsus yordamga muhtoj bola o'qish jarayonida har tomonlama rivojlansin" deb hisoblaydi. Ya'ni L.S.Vigotskiy umumiy va maxsus ta'limni uyg'unlashtiradigan ta'lim tizimini tashkil etish maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim tizimida o'qitishni e'tirof etgan.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim umumta'lim maktablari tizimida muhim o'rin tutadi va barcha bolalarga sifatli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Samarali inklyuziv ta'lim mexanizmlarini joriy etish orqali nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarning rivojlanishi, balki ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi ham ta'minlanadi. Shu sababli, pedagoglar, davlat idoralari va jamiyat ushbu jarayonda faol ishtirok etishi lozim. Qolaversa, ta'lim sohasini, xususan, inklyuziv ta'limga oid

qonunchilikni takomillashtirish, bu borada bosqichma-bosqich islohotlarning olib borilishi mamlakatimizda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan, imkoniyati cheklangan bolalarga sog'lom bolalar bilan bir xil sharoitda bilim olishlarida teng huquq va imkoniyat yaratadi. Hozirgi kunga kelib respublikamiz tomonidan viloyatlardagi maktablarda tashkil etilgan inklyuziv sinflar tajriba, sinov tariqasida o'z ish faoliyatlarini olib bormoqdalar. Inklyuziv ta'lim g'oyasini O'zbekistonda joriy qilish va undagi muammolarni hal qilish maqsadida turli xil chora-tadbirlar uyushtirish, matbuotaxborot vositalari orqali targ'ibot-tashviqot ishlari bir muncha faollashdi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Ture Yonsson. Inklyuziv ta'lim. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. YuNESKO Xalqaro tashkiloti. Opereyshen Mersi Xalqaro tashkiloti, Respublika ta'lim markazi. – T., 2021.
2. https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144
3. Mengliyev, B. (2022). PEDAGOGICAL COMPETENCE OF A MODERN PHYSICAL EDUCATION TEACHER. Science and innovation, 1(B7), 554-556
4. D.U.Raxmanova. "UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR TA'LIMINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK HISLATLARI". Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar Pedagogical Education Cluster: Problems and Solutions Кластер педагогического образования: проблемы и решения. <https://cyberleninka.ru/article/n/umumta-lim-maktablarida-imkoniyati-cheklangan-bolalar-ta-limining-pedagogik-psixologik-hislatlari/pdf>. 729-b.